

Simfonik orkestr



Mavjud orkestrlar orasida eng kattasi **simfonik orkestrdir**. U turli musiqiy cholg'ularni ijro etadigan musiqachi-sozandalar jamoasidan tashkil topgan. Orkestr tarkibida yuztadan ortiq odam bo'lishi mumkin.


Har bir musiqachi dirijorni yaxshi ko'ra olishi uchun, odatda, orkestr **yarimoy** (yelpig'ich) shaklida o'tiradi. **Yuqori tovushli cholg'ular chap tomonda, past tovushlilari esa o'ng tomonda joylashadi.** Bunday tartib barcha musiqachilar birgalikda ijro etganda, orkestrning go'zal va hamohang yangrashiga yordam beradi.



royál



árfa



uchburchak



litávra



ksilofón


klarnétlar



fléýtalar



ikkinchi skripkalar



birinchi skripkalar

Orkestrdagi asosiy shaxs – **dirijor**. U tomoshabinlarga teskari, musiqachilarga esa yuzlanib turadi va butun orkestrni boshqaradi.

Dirijor **ijroni qachon boshlash** va **past yoki baland tovushda ijro etishni ko'rsatadi** hamda **umumiy sur'atni ushlab turadi**. Ba'zan u **dirijorlik tayoqchasidan** foydalanadi. Barcha musiqachilarga ko'rinishi uchun dirijor **podium** deb ataladigan balandroq joyda turadi. Musiqaning uyg'un va chiroyli yangrashi dirijorning xatti-harakatlariga bog'liq.



barabánlar



trombón



túba



valtórnalar



trubá



kontrabáslar



fagótlar



gobóylar



áltlar



violonchéllar



dirijor

Orkestrdagi barcha cholg'ular **to'rt guruhga** bo'linadi va bu guruhlar **oila** deb ataladi.



Torli-kamonli – skrípka, ált, violonché, kontrabás. Ushbu cholg'ular mayin tovush chiqaradi va yaxshi eshitilishi uchun orkestrning **old qismida** joylashtiriladi.



Yog'och damli – fléyta, klarnét, gobóy, fagót. Ular torli va mis cholg'ular **o'rtasida** joylashtiriladi.



Mis damli – trubá, trombón, valtórna, túba. Ular jarangdor va dabdabali yangraydi va orkestrning **orqa qismida** joylashtiriladi.



Zarbli – barabanlar, litávra, uchburchak, likopchalar. Ular **ritm** yaratib, musiqa bezak beradi.

O'zbekistondagi simfonik orkestr

Mamlakatimizda bir qancha ajoyib orkestrlar faoliyat yuritadi. **O'zbekiston davlat yoshlar simfonik orkestri** shulardan biridir. U O'zbekiston davlat konservatoriyasining Katta zalida chiqishlar qiladi hamda mumtoz va zamonaviy kompozitorlarning asarlarini ijro etadi.



Orkestrdagi ko'plab musiqachilar **O'zbekiston davlat konservatoriyasi** bitiruvchilaridir, ular bu yerda turli cholg'ularni chalishni o'rganadilar.



1. **Simfonik orkestr** nima?
2. Orkestrdagi cholg'ular qanday guruhlariga (oilaga) bo'linadi?
3. Nima uchun orkestrdagi musiqachilar **yarimoy shaklida** o'tiradilar?
4. **Dirijor** kim va u nima uchun orkestrga kerak?
5. Dirijor qo'lidagi tayoqcha qanday nomlanadi?



Siz yashaydigan shaharda yoki viloyatda qanday orkestrlar borligini bilib, ular haqida so'zlab bering.

